

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IMTIYOZLI KREDITLAR AJRATISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

Ruzmetov Davron Ibrogimovich

Urganch RANCH Texnologiya universiteti xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori, i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Email: d.ruzmetov@utu-ranch.uz

Orcid: <https://orcid.org/0009-0002-2301-8636>

Saidov Murodjon Dilmurod o'g'li

Urganch Ranch texnologiya universiteti iqtisodiyot yonalishi magistranti

Email: murodjon83.49@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/723

Abstract

This article analyzes the effective tools for supporting small business and private entrepreneurship – the system of preferential (subsidized) loans. It considers the content of subsidized loans, the mechanisms for allocating them, and how these financial measures influence the development of entrepreneurial entities. The study, using the example of the Republic of Uzbekistan, discusses practical aspects of subsidized loan policy, existing problems, and ways to address them. It also analyzes the role of lending in ensuring the financial stability of small business entities, creating new jobs, and achieving economic growth. The relevance of this topic is evident as it relates to important directions of supporting entrepreneurship and contributing to the country's economic development.

Keywords: small business, subsidized lending, subsidy, entrepreneurship, monetary policy, commercial banks, economic efficiency, entrepreneurial entities, investments, market economy, employment.

Аннотация

В этой статье анализируются эффективные инструменты поддержки субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства – система льготных кредитов. Рассматривается содержание льготных кредитов, механизмы их выделения, а также как данные финансовые меры влияют на развитие субъектов предпринимательства. В ходе исследования на примере Республики Узбекистан обсуждаются практические аспекты политики льготного кредитования, существующие проблемы и пути их решения. Также анализируется роль кредитования в обеспечении финансовой устойчивости малых бизнес-субъектов, создании новых рабочих мест и достижении экономического роста. Актуальность данной темы выражена в том, что она относится к важным направлениям поддержки предпринимательства и вклада в экономическое развитие страны.

Ключевые слова: малый бизнес, льготное кредитование, субсидия, предпринимательство, монетарная политика, коммерческие банки, экономическая эффективность, субъекты предпринимательства, инвестиции, рыночная экономика, занятость населения.

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning samarali vositalaridan biri – imtiyozli kreditlar tizimi tahlil qilinadi. Unda imtiyozli kreditlarning mazmuni, ularni ajratish mexanizmlari, shuningdek, ushbu moliyaviy choralar tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani o‘rganiladi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi misolida imtiyozli kredit siyosatining amaliy jihatlari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘shishga erishishda kreditlashning o‘rni tahlil qilinadi. Mazkur mavzu dolzarbligi bilan ajralib turadi, chunki u tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishga qaratilgan muhim yo‘nalishlardan biridir.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, imtiyozli kredit, subsidiya, tadbirkorlik, monitar siyosat, tijorat banklari, iqtisodiy samaradorlik, tadbirkorlik sub'ektlari, investitsiya, bozor iqtisodiyoti, axoli bandligi.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin egallaydi. Mazkur sektor o‘zining moslashuvchanligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati, innovatsiyalarni tez joriy etishi, ichki bozorni to‘ldirishdagi faolligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jihatdan ilg‘or davlatlarda kichik biznes YalMning 50 foizdan ortig‘ini, bandlikning esa 60-70 foizini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ya’ni kreditlash tizimini takomillashtirish orqali ularni rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu boisdan, ushbu maqolada aynan kreditlash vositalari orqali kichik biznesni rivojlantirishning mohiyati, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O‘zbekistonda tadbirkorlik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mujassamlashgan, yaqqol namoyon bo‘ladigan hamda tez rivojlanib borayotgan va harakatchan sohasiga aylanib bormoqda. Mamlakatda bozor munosabatlarining shakllanishi va iqtisodiy taraqqiyotida uning o‘rni va roli tobora sezilarli tus olib bormoqda. Respublikamizda bu mavzuda ilmiy izlanishlarini olib borayotgan olimlar kichik biznes sublarini rivojlantirish borasida bir qator o‘zlarining mulohazalarini keltirib o‘tganlar.

Jumladan; A.A. Bekmurodov tomonidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashda yuzaga keladigan kamchiliklar va muammolar ularni bartaraf etishdagi tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan [3].

S.N.Abdulxakimov tadqiqotlarida kichik korxonalarining rivojlanishini ta’minlovchi me’yoriy-huquqiy bazalar, mulkiy huquqlar va siyosat mexanizmlarini o‘rganish asosida, moliyalashtirish, bozorga kirish va nizolarni hal qilishda institutlarning roli alohida ta’kidlangan [4].

I.M. Xasanov tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan olib borilayotgan islohatlar, qabul qilingan dasturlarning bajarilishi va yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma’lumotlar berilgan [5].

I.A. Saypullayev tadqiqotlarida mamlakatda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlarning qonuniy asoslari ishlab chiqilganligi, tadbirkorlik faoliyati uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar va mamlakat rahbarining tadbirkorlar bilan

o'tkazgan ochiq muloqotlarida mazkur muammolar yechimi bo'yicha bergan takliflarining amaliyotga joriy etilishi, qabul qilingan Prezident qarorlarida ularning aks ettirilganligi bo'yicha tahlillar keltirib o'tilgan [6].

G.T. Nutfulloev ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bugungi holati, iqtisodiyotdagi o'rni, hozirgi vaqtda eng qiyin bo'lgan tashqi va ichki muammolar va ularni hal qilish yo'llari yoritib berilgan [7].

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlarda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy o'rni, rivojlanish yo'llari, hamda bozorlardagi o'zgarishlar keng tahlil qilingan. Banklar tomonidan kreditlashtirishdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan va me'yoriy-huquqiy baza, mulkiy huquqlar va siyosat mexanizmlarining roli aniqlangan. Davlat dasturlari, qabul qilingan qarorlar va bajarilish darajasi tahlil etilganligini va ichki hamda tashqi muhitdagi to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Bir so'z bilan aytganda, kichik biznes subektlarini kreditlashga doir barcha holatlar to'liq tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu maqolada taqqoslovchi analitik yondashuv usuli qo'llanildi. Manbalarni adabiyotlar tahlili orqali to'planib, kvalitatif va kvantitativ metodlarni aralash yo'li qo'llanildi. Xususan kontent-analiz yordamida me'yoriy-huquqiy bazalar, kreditlash mexanizmlari va siyosatlar bo'yicha asosiy mavzular aniqlanadi; banklar, mikromoliya tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari kredit mablaglari bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha ma'lumotlar sintez qilindi va natijalar asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Taxlil va natijalar:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosi hisoblanadi. O'zbekistonda ham bu tizim iste'mol bozorini to'ldirish, innovatsiyani qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy foydalarni keltiradi. Shuning uchun imtiyozli kreditlar foizlaridagi qulaylik, taqdim etish shartlarining soddaligi orqali kichik biznes subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda imtiyozli kredit siyosatining amaliy jihatlarini o'rganadi, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini tavsiyalaydi. Ta'kidlash joizki, bu yo'nalish bizneslarning barqarorligini mustahkamlash, ish o'rinlarini ko'paytirish va umumiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muhimdir.

Imtiyozli kreditlar kichik biznes subyektlarini moliyaviy yuklarini kamaytiradi, foizlar darajasini pasaytiradi, sarmoya qarorlarini tezlashtiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moslashuvchan kredit mexanizmlari innovatsiyani rag'batlantiradi, ishlab chiqarishni kengaytiradi va bozor ishtirokchilari uchun barqarorlik muhitini yaratadi. Kredit berishda xavf-xatarlar mavjud, mijozlarni baholashdagi noaniqliklar, qoidalar ijrosi yetarli darajada emasligi, byudjet va uni monitoring qilishdagi muammolar shu jumlasidandir. Bunday xavflarni kamaytirish uchun xavf boshqaruvi, xavfni baholash modellari, kafillik (garov) va davlat kafolati kabi instrumentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Me'yoriy-huquqiy bazaning barqarorligi, mulk huquqlarini himoya qilish, siyosat mexanizmlarining uzluksizligi kredit dasturlarining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, byudjet monitoringi va javobgarlik mexanizmlari real hayotga mos keladigan natijalarni ta'minlaydi. Byudjetdagi mablag'lar, hisobot shakllari, nazorat tizimlarining takomillashuvi kredit siyosatining muvaffaqiyatli tatbiqini qo'llab-quvvatlaydi. Rivojlanayotgan mintaqalar uchun alohida yechimlar ishlab chiqilishi aynan bu masaladagi muammolarni echimi sifatida ko'rib o'tishimiz mumkin. Yangi

ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, soliqlar va daromadlar o‘sishi kabi ko‘rsatkichlar ijobiy tendensiyalardan biridir. Subsidialarning samaradorligi tadbirkorlikni barqaror o‘rishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foiz stavkalarini pasaytirish, kreditlar uchun qulay shartlar, vaqti-vaqti bilan imtiyozli davrlar kichik biznes subyektlarining moliyaviy yukini kamaytiradi, likvidlikni oshiradi va Kapital ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Bu o‘z navbatida sarmoyaviy qarorlarni tezlashtiradi va o‘rish imkoniyatini oshiradi. Imtiyozli kreditlar bilan ta‘minlanish orqali tadbirkorlik subektlari o‘z faoliyatini kengayadi, ishlab chiqarish hajmi oshadi, mahalliy bozorlar raqobatbardosh bo‘ladi. Xususiy sektor tomonidan qabul qilingan investitsiyalarning ko‘payishi sanoatlashuvni rag‘batlantiradi va eksport salohiyatini oshiradi. Ko‘plab tadqiqotlar kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar qishloq va shahar tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishda sezilarli yordamini ko‘rsatdi. Bu yondashuv qollanilgan sohalarda ishchi kuchi talablari o‘rib borayotganini ko‘rsatadi. Kreditlar mahalliy daromadlarning barqarorlanishi, xususiy sektorning soliq majburiyatlarini to‘liq bajara olishi kabi omillar orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Narx-navo barqarorligi ham ko‘rsatkichlar qatorida o‘z aksini topadi.

Evropa davlatlarida kichik biznesga imtiyozli kreditlar tizimining amaliy qo‘llanilishi va uning iqtisodiy ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘plab Yevropa davlatlari kichik biznes uchun maxsus moliyaviy instrumentlarni (garovsiz yoki garovli kreditlar, qisman subsidiya va maxsus grantlar) tatbiq etadi. Bu tizimlar biznes-aktivlikni oshirish, innovatsiya va eksport salohiyatini kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan. Foiz stavkalarini kamaytirish, kafillik suniylashtirish, xavf-qaytarish fondlari orqali kreditlar uchun qo‘shimcha garovlar ta‘minlash kabi usullar keng tarqalgan. Kredit dasturlari odatda mikromoliya tashkilotlari, tijorat banklari va mahalliy hokimiyat yordamsiz tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Bu yo‘l banklarning xavflar portfelini diversifikatsiya qiladi. Kichik biznes uchun kreditlar, kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlovchi garov qo‘llab-quvvatlash dasturlari; innovatsion startaplar uchun maxsus bozorga yo‘naltirilgan grantlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Yuqori moliyaviy savodxonlik, aniq tahlil va kafillik mexanizmlarining mavjudligi yani kichik biznes subektlari uchun qulay shartlar, uzoq muddatli kreditlar hamda byudjet cheklovlari ba‘zi sohalarda sarflashlarni chegaralaydi, ba‘zi kichik biznes subektlari uchun kam foizli kreditlar hamon cheklanganligicha qolmoqda. Misol uchun Shvetsiyada mahalliy tarmoqlarni rivojlantirish uchun jamoaviy kreditlar, afzallikli foizlar, innovatsion loyihalarni yo‘lga qo‘yish uchun grantlar monitoringgi olib boriladi va ijtimoiy ta‘sir hisobga olinadi. Mahalliy byudjetlar tejamkorlikni talab qiladi va yuqori sifatli davlat xizmatlari tavsiya etiladi. Gollandiyada subsidiya va kafillik dasturlari, kichik biznes uchun mos keladigan moslashuvchan moliyaviy mahsulotlar va rivojlanayotgan mikromoliya tizimining kengayishi; tadbirkorlarga faoliyatini qisqa muddatda boshlashga yordam beradi. Ushbu tizimni yanadan soddalashtirish maqsadida parlamentga qog‘ozbozlikni kamaytirish taklifi ishlab chiqilgan yani tadbirkor o‘zining rasmiy hujjatlari bilan mobil ilovalardan foydalanib imtiyozli kreditga ariza qoldiradi va qanoatlantirilganda hech dahmazalarsiz uni o‘z firmasining hisobiga qabul qilib oladi va o‘z faoliyatini davom ettiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlash jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim yo‘nalish bo‘lib, ularning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, innovatsiya va ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Biroq, kredit berish jarayonida turli xavflar paydo bo‘ladi.

Asosiy maqsad mavjud xavflarni bartaraf etish orqali kredit siyosatini yanada samarali, adolatli va barqaror qilish.

Xavflarning asosiy guruhlari quyidagilardan iborat:

1) mijoz xavfi (credit risk) ya’ni to’lovlarni o’z vaqtida amalga oshirilmamaslik ehtimoli. Bu xavf, odatda mijozning moliyaviy holati, qarz majburiyatlari, daromad barqarorligi asosida baholanadi;

2) yuqori darajadagi likvidlik xavfi ya’ni kredit portfelining moliyaviy yukini boshqarish qiyinlashgani sababli, bosim ostida naqd pul oqimlarini qoplash imkoniyati cheklangan bo’ladi;

3) xavf to’g’ri baholamaslik ya’ni risklarni aniqlanishda, baholanmasligi yoki zarur choralar qo’llanilmasligi sababli portfel xavfi oshishi;

4) operatsion xavf ya’ni ichki jarayonlar, axborot xavfsizligi, texnologik tizimlar yoki xodimlar xatosidan kelib chiqadigan xavf;

5) raqamli xavflar yoki soxta hujjatlar, identifikatsiya fraudlari, axborot xavfsizligini buzilishi kabi muammolardir.

Shu jumladan, regulator xavfi: me’yoriy o’zgarishlar, soliqqa oid o’zgarishlar va dasturlar uchun talablar o’zgarishi va makroiqtisodiy xavflar, inflyatsiya, valyuta kurslarining o’zgarishi, umumiy iqtisodiy noaniqliklar oldini olish kabi xavflarni o’z ichiga oladi. Xavflarni kelib chiqish sabablariga ko’ra mijozlar haqidagi ma’lumotlar noto’liq yoki noto’g’ri bo’lishi, baholash jarayonining noaniqligi va bozor sharoitlarining o’zgaruvchanligi hususan pandemiya, inqirozlar, talab va taklifning tez o’zgarishi kabi xavflarni ko’rishimiz mumkin. Kafillik va garov tizimining noto’griligi, garovlarning etarli bo’lmasligi yoki baholanish qiyinchiliklari hamda kredit siyosatining moslashuvchan bo’lmasligi, me’yoriy o’zgarishlarga mos kelmaslik kabi tezkor qaror qabul qilinmasligini ko’rishimiz mumkin bo’ladi. Ushbu xavflar sirasiga yana texnologik xavflarni kiritishimiz mumkin bular ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashdagi kamchiliklar, tizimlar ishdan chiqishi yoki butunlay tizimdan yoq bo’lib ketishi kabi xatarlarni o’z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi amaliy va dolzarb masala ekanligini yuqorida keltirilgan tahlillarimizdan ko’rishimiz mumkin. Maqolada xalqaro va respublikamiz misolida imtiyozli kredit siyosatining amaliy jihatlarini, uning tahliliy mexanizmlarini va tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ko’rsatgan ta’sirini chuqur tahlil qilindi. Imtiyozli kreditlar orqali olingan moliyaviy resurslar kichik biznes loyihalarining barqaror fiskal boshqaruvi, ish faoliyatining kengayishi va xavf-xatarlarni kamaytirishda muhim rol o’ynaydi. Bunday instrumentlar nafaqat joriy ishlab chiqarish quvvatini oshirish, balki yangi ish o’rinlarini yaratish, mahsulot va xizmatlar tannarhini diversifikatsiyasi kabi ijtimoiy-iqtisodiy foydalarni ham kuchaytiradi.

Imtiyozli kreditlar tizimi qator afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, kichik biznes subyektlariga kapitallashishga birlamchi asos bo’ladi. Biznes-reja asosida rivojlanish uchun zarur bo’lgan uzun muddatli moliyaviy manbalarni ta’minlaydi. Foiz stavkalarining pasayishi biznes faoliyatining rentabilligini oshiradi va rentabillik darajasini yaxshilaydi. Subsidya va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan instrumentlari orqali xavflar kamayadi, bu esa yangi loyihalarni moliyalashtirishni kengaytiradi. Banklar uchun xavfni bozorlar bilan

ta’minlashning samarali mexanizmi bo’ladi yani kreditlash siyosati banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qiladi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Biroq, ayrim mavjud muammolar ham bor. Ya’ni, imtiyozli kreditlarning ta’minot va monitoring tizimi yetarli darajada siyosatga mos kelmagan hollarda soxta loyihalar, noto’g’ri yo’naltirishlar ko’rsatilgan loyihalar paydo bo’ladi. Maxsus tijorat banklari va bozor institutlari o’rtasidagi hamkorlik ortida berkitilgan bo’lganligi sababli samaradorlik sekin o’sadi. Bunda, kreditlash muddatlarining mos kelmasligi, ta’minot xavflari, kafillik tizimlarining zaifligi kabi muammolar aniqlanadi. Shuningdek, monitoring, hisobot berish va natijalarni baholash bo’yicha standartlar yetarli darajada joriy etilmaganligi kredit resurslarini ajratishda qo’shimcha tartib va qoidalarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Kelajakda imtiyozli kredit siyosatini yanada samarali qilish uchun quyidagi yo’nalishlar ko’rib chiqilishi lozim deb hisoblaymiz:

- integratsiyalashgan kredit modelini joriy etish ya’ni subsidiyalarning doirasi kengaytirilishi, kredit riskining bozor usullari orqali baholanishi;
- bozorni tartibga soluvchi va tahlil qiluvchi tashkilotlar o’rtasida yaqin hamkorlik o’rnatilishi ta’minlash, axborot almashinuvi va tartib qoidalarni soddalashtirilishi;
- kichik biznes subektlari uchun malaka oshirish, biznes-reja ishlab chiqish, moliyaviy boshqaruv va bozor tahlili bo’yicha trening, seminar va o’quv mashgulotlarini tashkil etishni jadallashtirish;
- raqamli infratuzilma orqali onlayn kreditlash jarayonining soddalashtirishi, shaffoflik va adolatli tizimni shakillantirish.

Xulosa qilib aytganda, imtiyozli kreditlar tizimi samaradorligini oshirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish uchun kompleks va moslashtirilgan yondashuv ishlab chiqish zarur. Modernizatsiya, aniqlik va samaradorlikka yo’naltirilgan siyosat kichik biznesning o’sishini yuqori darajada qo’llab-quvvatlab, ish o’rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va umumiy iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son qarori.
3. A.A. Bekmurodov Kichikbiznes sub’ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashda xorij tajribalari. “Теория и практика современной науки” №6(96) 2023
4. S.N.Abdulxakimov. Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari. “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy jurnalining 2024 yil noyabr soni
5. I.M. Xasanov Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. RESEARCH FOCUS ilmiy jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7188894>
6. Saypullayev I.A. O’zbekiston kichik va o’rta biznesni rivojlantirishda ichki va tashqi muhit. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2023-yil, dekabr. № 11-12-sonlar.
7. G’.T. Nutfulloev. O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2024-yil, mart. № 3-son